

BADIIY MATNDA TABIAT XRONOTOPI VA PSIXOLOGIK TASVIR UYG'UNLIGI (AYRIS MYORDOK ROMANLARI MISOLIDA)

Shapsanova Feruza Muzaffarovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
shapsanovaferuza@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy ingliz adabiyotining eng muhim namoyondalaridan biri hisoblangan Ayris Myordok (1919–1999) faylasuf va yozuvchi kasbida faoliyat yuritgan bo'lib, adabiyot va falsafani uyg'unlashtirgan ijodi bilan mashhurdir. Myordok Irlandiyada tug'ilgan, keyinchalik Oksford universitetida ta'lim olgan va shu yerda falsafa bo'yicha faoliyat yuritgan. Uning ilmiy qarashlari ko'proq axloq falsafasi, ekzistensializm va neoplatonizm bilan bog'liq.

Mazkur maqolada ingliz yozuvchisi Ayris Myordok romanlarida tabiat xronotopining badiiy va falsafiy funksiyalari tahlil qilinadi. Tabiat tasvirlari orqali qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari, ekzistensial izlanishlari va metafizik qarashlari ochib beriladi. Shuningdek, go'zallik va ulug'vorlik kategoriyalarining badiiy talqini yoritiladi.

Kalit so'zlar: tabiat xronotopi, peyzaj, psixologik tasvir, ekzistensializm, ulug'vorlik.

Аннотация. Одной из наиболее значимых представительниц современной английской литературы является Айрис Мердок (1919–1999), философ и писатель, известная своим творчеством, в котором органично сочетаются литература и философия. Мердок родилась в Ирландии, позднее получила образование в Университете Оксфорда, где также занималась преподаванием философии. Её научные взгляды в основном связаны с моральной философией, экзистенциализмом и неоплатонизмом.

В данной статье анализируются художественные и философские функции художественного хронотопа природы в романах английской писательницы Айрис Мердок. Посредством описаний природы раскрываются внутренние психологические переживания героев, их экзистенциальные поиски и метафизические взгляды. Также освещается художественная интерпретация категорий прекрасного и возвышенного.

Ключевые слова: хронотоп природы, пейзаж, психологический портрет, экзистенциализм, возвышенное.

Abstract. One of the most prominent representatives of modern English literature, Iris Murdoch (1919–1999), was both a philosopher and a novelist, renowned for her work that harmoniously combines literature and philosophy. Murdoch was born in Ireland and later studied at University of Oxford, where she also pursued an academic career in philosophy. Her scholarly views are mainly associated with moral philosophy, existentialism, and neoplatonism.

This article analyzes the artistic and philosophical functions of the artistic chronotope of nature in the novels of Iris Murdoch. Through descriptions of nature, the inner psychological experiences of the characters, their existential quests, and their metaphysical perspectives are revealed. The study also explores the artistic interpretation of the categories of beauty and the sublime.

Keywords: chronotope of nature, landscape, psychological portrait, existentialism, the sublime.

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda xronotop tushunchasi badiiy asarni tahlil qilishning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiat xronotopi badiiy asar qahramonlarining ichki dunyosini ochib berishda samarali vositalardan biridir. Ayris Myordok romanlarida tabiat tasvirlari nafaqat fon, balki falsafiy mazmun yuklovchi muhim poetik element sifatida namoyon bo'ladi. Romanlarda tabiat tasviri qahramon ichki olami bilan parallelizmni hosil qilib, asar mazmun-mohiyatini ochiqlyaydi, hamda

muallifning badiiy tasvir yaratish mahoratini ko'rsatadi. Ijodkor asar yaratishda badiiy xronotop turlarini chatishtirish, almashtirish, zidlash yordamida kompozitsiya yaratishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi faylasuf-yozuvchi bo'lib faoliyat yuritgan nozik hilqat vakilasi Ayris Myordokning 50-70 yillar oralig'ida yaratgan romanlari arxitektonikasining muhim unsuri bo'lmish tabiat tasvirining qahramon ruyihatining ifodasi sifatida obrazlanishini asoslashdir. Shu bilan birga, ularni go'zallik va ulug'vorlik kabi falsafiy mushoxadalarni tahlil qilishda vosita bo'lib xizmat qilishini romanlar tahlili asosida taqdim qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotda zamon va makonning o'zaro kesishuvi va aloqasi *xronotop* - deb ataladi, ya'ni *chronos* – bu vaqt, *topos* – makon degan ma'nolarini beradi. [9, C. 121] To'rayeva o'z ilmiy ishida badiiy asar yaratishda qo'llaniladigan xronotopning yetti shaklini sanab o'tgan bo'lib, bularga *real, ijtimoiy, milliy, folklor, fantastik, psixologik* (olima psixologik xronotopga tush xronotopini ham kiritadi) va *xotira* xronotoplari kiradi. [10, S. 105] Ayris Myordok o'z romanlarida xronotopning real va psixologik turlaridan ko'proq foydalanadi. Shunday ekan, adiba mahorati badiiy makon va zamon tasvirining qahramon ruhiyati bilan uyg'unligida o'z ifodasini topgandir. Borliq va tabiat inson tiynati orqali badiiyatga o'giriladi, ya'ni makroolam mikroolam orqali anglashiladi. [10, S. 221] Myordok romalaridagi makroolam zamonaviy (XX asr ikkinchi yarmi) Yevropa, ko'pincha Angliya, Irlandiya, ba'zida Fransiya kabi sivilizatsiya makonlari maketi asosida shakllanadi. Mikroolam obrazi esa zamonaviy ekzistensial, irfoniy va burjua qahramonlar, ularning sarguzashtlari, ruhiy evrilishlari asosida yoritiladi. Ayris Myordok romanlari tahlili falsafiy yondashuv asosida adibaning falsafiy ishlari yordamida tahlilga tortish samaralidir. Muallifning ijodi o'zaro badiiy va falsafiy yo'nalishlarga ajratilib o'rganilsa-da, falsafiy asarlarida izlanilgan va shakllangan g'oyalar to'g'ridan-to'g'ri uning romanlaridan joy oladi. Adiba o'zi izlangan metafizik olam haqiqati falsafasini badiiy haqiqatga badiiy detallar yordamida, jumladan badiiy makon va zamon, o'lim motivi, hamda ekzistensial qahramonning ruhiy kamoloti singari badiiy g'oyalar yordamida ko'chiradi. Shunday ekan, uning falsafa sohasiga oid ishlarini o'rganmay turib romanlarini tahlilga tortish biron bir samara bermaydi.

Ayris Myordok o'z g'oyalarini aks ettirgan, hamda badiiy ijodiga ta'sir ko'rsatgan quyidagi falsafiy ishlar ushbu tadqiqotning obyekti bo'lgan Myordok romanlari tahlili uchun dolzarbdir.

1) "Ulug'vorlik va ezgulik" (The Sublime and the Good, 1959) [7] – adiba bu esseyida san'at nima, nimalar asosida uni yaxshi va yomonga ajratamiz degan savollarga javob berishga harakat qiladi. Muallifning fikricha yaxshi san'at ijodkorning axloqiy va tafakkuriy o'zligini mujassam qilib, axloqiy normalar asosida muhabbat yoki ezgulikni dav'at qiladi.

2) "Ulug'vorlik va go'zallikka qaytib" (The Sublime and the Beautiful Revisited, 1959) [6] asari "Ulug'vorlik va ezgulik"essesining mantiqiy davomi bo'lib, Myordok o'z

essesida ezgulik tushunchasini Kant, Gegel va ekzistensialist olimlarning g'oyalari asosida tanqidiy tahlil qiladi va unga ko'ra, ezgulikka berilgan ta'riflarga nisbatan faqat ong va iroda mahsuli emasligini, balki adolatli tasavvur qobiliyati va sog'lom tafakkur holati asosida hayotni boricha anglab yetish yordamida erishiladigan jarayon maxsuliligiga urg'u beradi.

Natijalar. Asarda badiiy til bilan tasvirlangan tabiat, tun va kun kabi real xronotoplar uyg'unligi asar qahramonining ongida ro'y berayotgan his-hayajonni aks ettiradi. Muallifning ilk romani "To'r ostida" [8] bosh qahramoni bo'lmish Jeykning sevgan ayoli Anna bilan uchrashuvi idilliya zamoni hisoblanib, real hayotdan chetlanish, orzular va hayollar vaqti sifatida gavdalanadi: "During my talk with Anna it had become quite dark in the room, but outside it was still a late blue summer evening that made the trees and the river vibrate with colour." (*Anna bilan suxbatim davomida xona biroz qoring'ulashdi, lekin tashqari hali-hamon darxtilar va daryoni ranglar bilan jilviratgan kechki moviy yoz tuni edi.*) [8, P. 50] Muallifning ikkinchi romani "Sehrgardan chekinib" [5] qahramonlarining psixologiyasi ham peyzash tasvirlari bilan garmoniyalashtiriladi. "Annette was absorbed in watching the landscape. A house, a dog, a man on a bicycle, a woman in a field, a distant mountain. She looked upon them all enchanted, lips parted and eyes wide. It was like being at the pictures." (*Annet manzarani tomosha qilishga butunlay berilib ketgan edi. Uy, it, velosipeddagi erkak, daladagi ayol, uzoqdagi tog'. Bularning barchasiga u sehrlangandek tikilib qarar, lablari biroz ochiq, ko'zlari esa keng ochilgandi. Bu holat xuddi sur'at tomosha qilishga o'xshar edi.*) [5, P. 258] O'lim qo'rquvini boshidan kechirgan Annet ruhiy olamida tug'yonlar va o'zgarishlar sodir bo'lib, hayot detallari orqali hayot go'zalligi, ulug'vorligi va qadrini anglab yetadi. Otasi Endryu uni onasi Marsiya kabi sirli ayolga aylanganini ta'kidlab o'tadi, va bu bilan avtor asar so'nggida yosh Annetni ulg'ayish bo'sag'asini kesib o'tganiga ishora qiladi.

Tabiat xronotopi birinchi roman qahramonlari Jeyk va Annaning iddiliya zamonini belgilab bersa, "Sehrgardan chekinib" romanidagi Roza va Mishaning Italiyadagi uchrashuvi epizodida ham bu holat takrorlanadi. "Intenser illumination of the later evening drew from the pale country the colours which the earlier sun had hidden, gentle browns and golds, while the occasional olive tree displayed a darkening green, ready to turn to black. Before her, framed by the hills, lay the sea, streaked now with golden lines, its blue turning to amethyst, its dazzling surface resolved into an inward light. It glowed like a great window of stained glass." (*Kechki paytning yanada tiniq nuri so'nayotgan quyosh yashirib qo'ygan ranglarni - mayin jigarranglar va oltin tuslarni, oqarib turgan diyor bag'ridan qayta uyg'otdi, goho ko'zga tashlangan zaytun daraxtlari esa tobora to'qarib borayotgan yashil yaproqlari bilan go'yo qora tusga kirishga shay edi. Uning qarshisida, tepaliklar orasida ramkaga solingandek, dengiz yotardi, endi u oltin chiziqlar bilan sidirilgan, moviy rangi ametist tusiga kirgan, yaltirab turgan sathi esa ich-ichidan yongan nurga aylanib ketgandi. U ulkan rangli shisha derazadek porlab turardi.*) [5, P. 247]

Adiba peyzaj tasvirida kontrast to‘q va och ranglarni ifodalaydi va bu bilan qahramonning ongidagi xaos romantizm unsurlari bilan bog‘lanadi. Mishaning sirli qo‘rg‘oni gotik qasrlarni esga soladi va Rozaning tafakkurini romantizm bilan kasallanganligini e‘tirof qiladi. “They crossed the terrace. A line of slim cypress trees led down towards the valley, which was already dark for the night. Far beneath them a dog was barking. The sound came circling up like a bird to vanish into the wide circumference of the evening sun.” (*Ular terassadan o‘tishdi. Ingichka sadr daraxtlari saf tortib, allaqachon tun bag‘riga cho‘kkan vodiya tomon yetaklardi. Uzoqlarda, tag tarafda bir it hurardi. Uning ovozi xuddi qushdek aylana chizib yuqoriga ko‘tarildi-da, botayotgan quyoshning keng doirasida g‘oyib bo‘ldi.*) [5, P. 248] Parchada kelgan tabiat xronotopi va itning vovullashi epizoddagi to‘qnashuvning tarangligini oshiradi. Roza uchun bu romantik sarguzasht bo‘lsa, avliyo Piter bilan muntazam suxbatta bo‘lgan Misha uchun bu haqiqatning singan aksi bo‘lib tuyuladi. “At last she said, ‘It is a very beautiful landscape.’ ‘It is a very poor landscape,’ said Mischa.” (*Oxiri u shunday dedi: Manzara juda go‘zal.’ ‘Manzara o‘ta xarob,’ - qaytardi Misha.*) [5, p. 248] Keyingi epizodlarda qahramonlar tomonidan antoganist deb bilingan Kelvin va Rozaning dialogi oldidan tasvirlanga tabiat kechagi illyuziyalarning yechilishi, hamda haqiqat ramzi bo‘lib keladi. “The scene of yesterday was quite transformed. The sea was now pale and almost colourless, yet at the same time brilliant, a sea of liquid light.” (*Kechagi manzara butunlay o‘zgarib ketgandi. Endi dengiz oqarib, deyarli rangsiz ko‘rinar, ammo shu bilan birga hayratlanarli darajada yaltirar edi, go‘yo u suyuq nurdan iborat.*) [5, p. 250] Bir-biriga zidlanuvchi tasvir orqali, inson ongingning qabul qilish jarayoni o‘zgaruvchan ekanligi anglashiladi. Roza uchun Misha bilan uchrashuv yorqin ranglarni his qilish va barcha narsada go‘zallikni payqash bilan hamohang bo‘lsa, ong tug‘yonlarga dam bergan zamon dengiz asl holatiga, rangsiz va xira, bir vaqtning o‘zida ko‘zni qamashtiruvchi etib tasvirlangan. Quyosh va nur tasviri adiba ijodida doimo asl haqiqat shaklida namoyon bo‘ladi. Bu o‘ziga xoslik adibaning ilk romanida ham ko‘zga tashlanadi. “No sun came into this room, but in the reflected light from the Hospital wall everything was revealed with an abnormal clarity, ...” (*Quyosh bu xonaga kira olmasdi, bunga qaramasdan Kasalxonada devoridan aks etgan nur g‘ayrioddiy ravshanlik bilan bor narsani fosh qilib turardi, ...*) [8, P. 223] Myordok nazariyasi asosida quyosh haqiqat ramzi bo‘lsa, “To‘r ostida” romani qahramoni Jeyk ekzistensial inqiroz zamonida quyoshning nurlari aks bergan kasalxonada haqiqatni ko‘radi.

Adiba ijodida ko‘pincha qahramonlar kayfiyatiga mushtarak peyzaj tasvirlari gavdalanadi. Misol uchun “Qumqasr” [3, P. 336] romanida yomg‘ir xronotopi tushkun ruhiy kechinmalar tasviri bilan uyg‘unlikda qo‘llaniladi va badiiy pafosni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. “As she stood there, her back against the fence, chilled and soaked by the rain, she felt that she had suddenly been dragged into some awful nightmare: she had been driven out of her own house. Her hand went to her mouth. She shook with the grief and the horror of it. The hot tears warmed her cheek, mingling with the rain.” (*Yomg‘irdan*

shalabbo bo'lgan holda, tanasini titroq bosib panjaraga suyanib turar ekan, u o'zini bexosdan qandaydir qo'rqinchili tushga tushib qolganday his qildi: uni o'z uyidan itarib chiqarishdi. U qo'li bilan og'zini berkiti. Uning tanasi qayg'u va qo'rqinch bilan qaltirab turardi. Uning qaynoq ko'z yoshlari yomg'ir bilan qorishib dudoklarini ilitardi.) [3, P. 203] Syujet oqimi jadallashar ekan, avtor ko'pincha tabiatdagi o'zgarishlar orqali ruhiyatni izohlaydi. Romanda o'quvchilarga roviy tomonidan yomon deb ko'rsatilgan qahramon Nanning ruhiy iztirobi uning ko'z yoshlarida, yomg'ir bilan qorishgan holda aks ettiriladi va bu bilan nafaqat iztirob tasviri balki subyektiv yolg'on ham gavdalanadi. Bosh qahramon Bill Morning qattiqqo'l rafiqasi Nanga qilgan adolatsizligi, Nanning Bill va rassom ayol Reyn Karterni o'z uyida nomaqbul tarzda tutib olsada, bir og'iz gapsiz yomg'irli ko'chaga otilib, bu holatdan qochishga urinishi va oxir oqibat ekzistensial erkinlikni rad etib turmush o'rtog'ining aybidan o'tishi uni yomon ayoldan ko'ra jasur ayol ekanligini isbotlab qo'yadi. Avtor romanlarida antagonist qahramonlar mavjud emas, balki kamchiliklarga ega bo'lgan inson obrazlari o'rin egallagandir. Antagonist deb bilingan personajlar esa asosan bosh qahramonlarning hukmi bilan bu pozitsiyada o'quvchilar ongiga havola qilinadi.

“Sehrgardan chekinib” romanida ham yomg'ir xronotopining qo'llanilishi qahramonning ruhiy iztirobining aksi ekanligini kuzatish mumkin. “IT was raining. ... The large wet surfaces of the leaves, weighty with moisture, drooped and swayed in the sharp wind that was blowing. Then the door was flung wide open and in the sudden light from the hallway he saw Rosa, her clothes all darkened with the rain, standing before him.” (*Yomg'ir yog'ardi. ... Barglarning keng, ho'l sathi namlikdan og'irlashgan, ularni keskin shamol silkitib, egib-tebratardi. Shu payt eshik shartta ochildi va yo'lakdan kelgan yorug'likda u Rozani ko'rdi - kiyimlari yomg'irdan og'irlashgan holda uning qarshisida turardi.*) [5, P. 259] Manipulyator Mishadan chekinib avliyo-sifat qahramon Piter kulbasiga yetib kelgan Rozaning holati yomg'ir xronotopi vositasida, hayot haqiqatining achchiq va yoqimsiz ekanligiga ishora qiladi va xuddi gunoxlariga tavba qilish uchun kelgan nochor kabi avliyoga yuzlanadi.

Adibaning “Yakkashox” [4] romanida tabiat xronotoplari o'zgacha mahorat bilan tasvirlangan bo'lib, asar jozibasini yanada orttirishga, qahramonlarning psixologik holatini ifodalashga, syujet chizig'izini rivojlantirishga, shuningdek go'zallik va ulug'vorlik kabi falsafiy mushoxodalarni ochiqlashda qo'llanilgan. Romanda ko'zga tashlanadigan tabiat xronotoplariga **yomg'ir, shamol, dengiz, qoyalar** va **botqoqlik** kirib, ular asarda metoforik va ramziy qo'llaniladi, hamda mikro va makroolamni ifodalashda ishlatiladi.

Asardagi yomg'ir xronotopi birinchi navbatda avtorning boshqa romanlari kabi qahramonning ruhiyatini ifodalab keladi. Asarda psixologik zamon bo'lib gavdalangan Hannaning ekzistensial uyg'ongan va shu bilan birga inqirozga tushgan vaqti tinimsiz yomg'ir yog'a boshlaydi va syujet asta sekinlik bilan jadallashib boradi. “I feel so tired. I want to talk at random. Oh, how it rains! The winter is starting.” (*O'zimni juda*

charchagandek his qilyapman. Shunchaki, nima xayolimga kelsa, o'shani ochiq gapirgim kelmoqda. Oh, yomg'irni yog'ishini qara! Qish boshlanmoqda.) [4, P. 215] Qish faslining boshlanishi go'zal fantaziyalarning tugallanganini anglatib kelmoqda. Yomg'ir tobora kuchayishi tragediyalarning ketma-ketligini ta'minlaydi. Birinchi bo'lib Hanna qo'riqchisi Jeraldni otib o'ldiradi; bu zamonda tabiat shunday tasvirlanadi: "The rain was still falling heavily and the leaden evening sky could send no light into the house." (*Yomg'ir hanuz shiddat bilan yog'ardi, qo'rg'oshindek og'ir osmon esa uyning ichiga bir parcha ham yorug'likni o'tkazib yubormasdi.*) [4, P. 231] Kuchli yomg'ir va bo'ron tufayli Geyz qasri butunlay qorong'ulikda qolgani tragik atmosferani yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Adiba qahramonlarning og'ir ruhiy zamonini tasvirlar ekan yomg'ir xronotopini asosiy poetik detallardan biri qilib oladi. "Effingham went over to the window. He looked out into the depths of the rain. Nothing could be seen but grey rain behind rain." (*Effingham deraza oldiga bordi. U yomg'irning tub-tubiga tikildi. Yomg'ir ortidan yog'ayotgan kulrang tusli yomg'irdan bo'lak hech narsa ko'rinmasdi.*) [4, P. 232] Hannaning o'z joniga suiqasd qilish voqeasi yaqinlashishi bilan, bo'ronli yomg'ir xronotopi bunga atmosferali zamin yaratib beradi. Yomg'irning og'ir atmosferasi qahramonlarni chuquv o'ylovlarga va ongsizlik qariga yetaklab boradi. Yomg'ir xronotopi nafaqat manipulyator qahramonning, balki ezkistensial qahramonlarning ham ichki olamidagi tug'yonlarini ifodalashda xizmat qiladi. "He became very still, seeming to urge her to listen too. But she could hear only the endless mingled battering of the rain." (*U qotib qoldi, go'yo uni ham tinglashga undayotgandi. Ammo Meriyem faqat tinimsiz, bir-biriga qorishib ketgan yomg'ir shovqinini eshitardi xolos.*) [4, P. 241] Yuqoridagi parchada ekzistensial ijodkor Meriyemning ruhiy holati yoritilmoqda. Hannaning erkinlikka chiqishi g'oyasi asarning boshidan Meriyemni o'ziga jalb qiluvchi motiv bo'lib xizmat qilib keladi. Buning ortidan, yomg'ir tufayli yarim ongsiz holatda qolgan qahramon ekzistensial inqirozdagi, xonasiga qulflangan Hannani ozodlikka qo'yib yuborib, qisman uning suiqasdigacha sherik bo'lib qoladi. Yomg'irning tugashi Geyz qasrida kafanda yotgan uch murdaning (Jerald, Hanna, Piter) azasi bilan yakunlanadi va tragediya nihoyasiga yetib, qasrga kirib kelgan begona bosh qahramonlar o'z hayotlariga qaytib ketishadi.

Romanda yomg'ir xronotopi kabi kuchli pozitsiyadagi tabiat hodisasi bu shamol obrazi bo'lib, voqealar rivojida bu xronotop yomg'ir kabi pessimistik tonda tasvirlanadi. "Listen to the wind. It can blow dreadfully here. In the winter it blows so that it would drive you mad." (*Shamolga quloq sol. Bu yerlarda u dahshatli esadi. Ayniqsa qishda, odamni aqldan ozdiradigan darajada dahshatli esadi.*) [4, P. 43] Qahramonlarda shamol doimo yoqimsiz tuyg'u bilan assotsiatsiya qiladi. "Hannah shivered and drew on her shawl. 'I hope that wind isn't going to start again.'" *Le vent se lève - il faut tenter de vivre.*" (*Hannah titradi va ro'moliga mahkamroq o'randi. 'Umid qilamanki, shamol yana boshlanmaydi'. 'Shamol esmoqda – tirik qolish harakatini qilish kerak.*) [4, P. 54] Adiba

shamol xronotopi yordamida qahramonlarni xatar oldidan ziyraklikka chaqiradi. Keltirilgan parchada badiiy realiyadan foydalangan holda, ekzistensial g'oyalarning o'chog'i Fransiyaga ishora qilinib, badiiylikning haqiqiylik mezonini mukammallashtirishga erishilmoqda. Fransuz tilidan tarjima qilganda, shamol kuchaymoqda, tirik qolishning harakatini qilish lozim degan badiiy jumlaning Hanna tomonidan aytilishi asarning kulminatsiyasidan darak beradi.

Syjet davomida real hayot ramzi bo'lmish Alisaning haqiqiy tuyg'ulari Effinghamga emas, Denisga tegishli ekanligi ochiqlangandan so'ng Effinghamning harakati dengiz shamoli xronotopi bilan birgalikda ifodalanadi. "He opened the gate with difficulty. A strong warm wind from the sea was trying to keep it closed." (*U darvozani zo'rg'a ochdi. Dengizdan esayotgan kuchli, iliq shamol uni yopiq tutishga urinardi.*) [4, P. 192] Geyz qasridan chiqish darvozasini ochishda dengiz shamolining to'sqinlik qilishi kichik tasviriy detal bo'lganiga qaramay, ekzistensial qahramonning ko'chma ma'noda sehrlab qo'yuvchi sehrgarning uyidan chiqib ketishiga qilinayotgan to'sqinlikni ifodalab keladi. Shu bilan dengiz yasayotgan shamol illyuziya olamining sherigi sifatida ma'no kasb qiladi. Tabiat xronotopi asarda nafaqat poetik detal, balki syujetni va qahramonlarning taqdirini boshqaruvchi kuch bo'lib ham yuzaga chiqadi. Kuchli bo'ron ikki qasr aholisini qaltis vaziyatda bir-biridan uzib qo'yadi, yomg'ir qahramonlarni tushkunlikka tushiradi, va botqoqlikning sirli tabiati Effinghamning o'zgarishiga yordam beradi. Effinghamning botqoqlikdagi draxtlarning shaxslarga qiyoslashi ham tabiatning jonlangan sirli kuchidan darak beradi.

"Yakkashox" romanida uchraydigan tabiat xronotoplari qahramon va o'quvchilar ongida dual his-tuyg'ularni jumbushga keltiradi. Asarda keltirilgan yer va qirg'oq Jerald tomonidan shunday tasvirlanadi: "Your first visit, I suppose? The coast-line is all right. Beautiful perhaps. But the land is dreadful." (*Birinchi marta tashrif buyurishingiz, shundaymi? Sohil bo'yi yomon emas. Balki go'zal hamdir. Ammo bu yerning o'zi dahshatli.*) [4, P. 24] Bir ozdan so'ng Meriyemning rakursiga dengiz ko'ringanda, uning go'zalligi qahramonni hayratga soladi. Bunga qaramasdan u yerdagi qoyalar teskari, qo'rqinch to'la tuyg'ularni uyg'otadi. "They are wonderful," said Marian. She found the vast dark coastline repellent and frightening. She had never seen a land so out of sympathy with man." (*Bu yerlar ajoyib, dedi Mariyem. Ammo unga keng va qorong'u sohil jirkanch va qo'rqinchlidek ko'rindi. U ilgari hech qachon inson uchun bunchalik fayzsiz tuyulgan yerni uchratmagan edi.*) [4, P. 11] Jeraldga yoqish istagida ularga ijobiy baho bersa-da, qirg'oqdagi qoyalar o'zining ko'rinishi bilan uni qo'rquvga soladi. Skarren tabiatini Jerald go'zaldan ko'ra ulug'vor deb ta'riflaydi: "Sublime rather than beautiful, isn't it?" (*Go'zaldan ko'ra ulug'vorroq, shunday emasmi?*) [4, P. 84] Bu ta'rif adibaning "The Sublime and The Good" va "The Sublime and the Beautiful Revisited" deb nomlangan falsafiy ishlariga ishora qilib, asarning asosiy motivini ifodalaydi.

Muhokama. Go‘zallik va ulug‘vorlik g‘oyalari Kantga tegishli bo‘lgan falsafiy tushunchalar bo‘lib san‘at sohasining etik tanqidiga bog‘lanadi. Kantning fikriga ko‘ra go‘zallik erkin va qaram bo‘ladi. Erkin go‘zallik sifatida gullar, qushlarning sayrash kabi tabiatning kichik detallari tushunilsa, qaram go‘zallikka inson tomonidan manipulyatsiya qilingan va mukammalikka olib borilgan san‘at tushuniladi, xuddi kompozitsiyalangan musiqa kabi. Ulug‘vorlik deganda esa Kant tabiatning cheksizligi va kuchi oldidagi hayratni tushunadi. Misol uchun ulkan tog‘lar, cheksiz yulduzli osmon, bo‘ronli dengiz, yoki ulkan sharshara ulug‘vorlik hissini taqdim qilishi mumkin. [7] Ong ulug‘vorlikni to‘liq tushunib tizimga sola olmaydi. Go‘zallik tasavvur va tafakkurning garmoniyasi sababli anglashilsa, ulug‘vorlik hissi tasavvur va onging konfliktidan paydo bo‘ladi. Shunday qilib Kantning fikricha san‘at go‘zallik bo‘la oladi, ammo ulug‘vorlikka davo qila olmaydi. Myordok esa o‘z o‘rnida bu g‘oyaga aksicha fikr bildiradi va san‘at insonning ruhiyati orqali ulug‘vorlik hissini bera oladi deb ta’kidlaydi.

“Yakkashox” romanidagi Skarren tabiati aynan asarning markaziy qahramoni Hannaning mohiyatini ifodalaydi va bu mohiyat asarning so‘nggi qismlarida Meriyem tomonidan ochiq lanadi. Meriyem Hannaga – “you are the most sublime egoist I have ever met” (sen uchratganlarim ichida manmanlarning eng ulug‘vori ekansan.) [4, P. 219] – deya ta’rif beradi. Skarren tabiatining go‘zal, ulug‘vor, sirli, xatto qo‘rqinchli va xavfli ekanligi Hannaning tabiatini bekamu-ko‘st ta’riflab beradi. Myordok ulug‘vorlik hissini uyg‘otgan obyekt ong chegaralarini buzib o‘tishini ta’kidlab, unga nafaqat tabiatning cheksizligi, balki inson mohiyatining bitmas tunganmas jumboqligini ham kiritadi. [1, P. 18] Qahramonlarga Hannaning go‘zalligidan tashqari, uning tragik hayotiga sabab bo‘lgan murakkab tabiati ham ulug‘vorlik hissini taqdim etadi.

Myordok uchun tragediya janri san‘atning yuqori cho‘qqisidir, chunki u eng individual konsepsiyani o‘z ichiga oladi. O‘quvchi yoki avtor tragediya janri bilan yuzlashganda o‘zidan tashqarida bo‘lgan individ uchun qayg‘uradi va uning tragik hayoti ulug‘vorlik hissini tajribadan o‘tkazishga yordam beradi, xuddi san‘at namunasida keltirilgan inson obraziga qo‘yilgan muhabbat kabi. Tragediya janrida tasvirlangan qahramonlarga nisbatan tuyulgan muhabbat Myordok tomonidan tragik erkinlik deb nomlangan. U o‘zgalarning mavjudlik mohiyatini tasavvur qilish qobiliyatidan ibtido bo‘ladi. [7, P. 52] “Yakkashox” qahramonlari bir-birini qaytargan xatolik ham aynan shu o‘rinda yuzaga chiqadi. Ular Hannaning mohiyatini va borlig‘ini o‘zlariga moslashtiradilar. Asar qahramonlarini haqiqiy yozuvchi deb tasavvur qiladigan bo‘lsak, ular yozuvchi sifatida Myordok prinsiplariga javob bermagan bo‘lar edilar. Bunga sabab, ularning Hannani real inson sifatida tasavvur qilib tasvirlay olmagan va o‘zlarining hoxish istaklariga moslashtirgani bo‘lar edi.

Tabiat xronotoplari Myordok qahramonlari tasvirida ham ijobiy ham salbiy hissiyotlar bilan uyg‘unlashadi va ko‘pincha falsafiy-ramziy ma’noda qo‘llaniladi. Misol uchun quyosh – haqiqat, tuman – ko‘rlik, qoyalar va dengiz – ulug‘vorlik, yomg‘ir –

g'am-anduh, dengiz – o'lim va xavf, o'rmon – hayot illyuziyalari ramzi sifatida qo'llanishi Myordok uslubiga xosdir.

“Yakkashox” romanida o'lim konsepsiyasi va uni anglab yetishning qahramonlarga ko'rsatgan ta'siri botqoqlik tabiat xronotopi orqali esxatalogik zamonda gavdalanadi. Falsafiy romanlarda esxatalogik zamon, ya'ni abadiyat zamoni qahramonlarning ekzistensial inqirozni boshdan kechirayotgan vaqtni o'z ichiga oladi. M.M. Baxtin bu zamoni kelajak intixosi deb ataydi, ya'ni unda kelajak yo'qqa chiqadi yoki tugash nuqtasiga yetaklaydi. [9, C. 184] Esxatalogik zamon Effingham Kuperning botqoqlikda o'lim bilan yuzlashgan va dunyodan umidini uzgan payti o'zini ko'rsatadi. Aynan ratsional bo'lgan Effinghamning botqoqlikda xatarga uchrashi uning metafizik kuchlarga bo'lgan qo'quvini yuzaga keltiradi va mistik uyg'onishga turtki bo'ladi. Asarda botqoqlik fenomenasi bo'lgan mitti yorug'liklar shunday tasvirlangan: “It glowed there with an intense hard brilliance in the middle of the blackish scene, suggesting a vivid, incomprehensible, menacing presence. It was as if something were coming up from below, something very full of life indeed.” (*U qoramtir manzaraning o'rtasida qattiq va tig'dek charaqlagan nur bilan porlab turardi, go'yo bu jonli, tushunib bo'lmas va tahdidli mavjudotning o'zi edi. Xuddi tubdan, hayotga to'la bir narsa asta yuqoriga ko'tarilayotgandek edi.*) [4, P. 163] Tunda ro'y berayotgan botqoqlik hodisasini anglashda Effinghamning ratsionalizmi o'zlikka uchrab, peyzajga hayotga to'la deb ta'rif beriladi. Tabiatni jonlantirish uning harakatda ekanligidan va ong sinteziga yon bermaydigan xususiyati bilan yuzaga kelib, ulug'vorlikdan darak beradi. O'lim hissi qahramonning o'zligini bir oz muddat yo'qlikka g'arq qiladi, va bu orqali o'zgalarga neoplatonik muhabbat ibtido bo'ladi. “... with the death of the self the world becomes quite automatically the object of a perfect love.” (*... o'zlikning o'limi bilan dunyo o'z-o'zidan mukammal muhabbatning obyektiga aylanadi.*) [4, P. 167] Olamning avtomatik tarzda muhabbat obyektiga aylanishi uni ong bilan boshqarib bo'lmasligiga ishora qiladi, ya'ni shaxsda egoizmdan holi bo'lgan mohiyatning uyg'onib harakatga kelishi iroda yordamida yuzaga kelmaydi, balki e'tiqod va iymon bilan ibtido bo'ladi. Inson ongi to'la anglab yeta olmaydigan barcha olam xodisasi ulug'vorlik deb ataladi. Myordok nazdida ekzistensial tasodifiylikning bir turi bo'lgan o'lim ulug'vorlikning namoyishidir. Ulug'vorlik oldida inson o'zini kamtar his qiladi, xuddi o'zlikni yo'qlikka quvg'in qilish kabi. Myordok bu chuqur falsafiy xodisani o'z asarida badiiylashtiradi va insonning cheklangan erkinligini eng oydin va qaytarib bo'lmas o'lim hodisasi bilan isbotlaydi. [2, P. 88] Bu tajribadan so'ng, Effingham uni o'ldiray degan botqoqlikka ham yangicha nigoh bilan boqa boshlaydi. “How beautiful the bog looks in the sun. So many colours, reds and blues and yellows. I never knew it had so many colours.” (*Qarang, quyosh nurlarida botqoqlik naqadar go'zal ko'rinmoqda. Nechog'lik ranglar - qizil, moviy, sariq. Men ilgari unda bunday ko'p ranglar borligini payqamagan ekanman.*) [4, P. 170] Uning muhabbat to'la nazari nafaqat tabiat bilan chegaralanadi, balki uni o'rab turgan insonlarga nisbatan ham

ezgulik timsoli bo‘lmish adolat va muhabbat diqqati o‘zini ko‘rsatadi. “Their handsome faces, lit with tenderness and love, hovered over him angel-like.” (*Ularning mehr va muhabbat bilan yonib turgan chiroyli chehralari farishtalardek uning ustida suzib turardi.*) [4, P. 171] Effingham uchun avval o‘yin kulgu bo‘lgan va egoizmni qondirish manbaasi bo‘lgan ayollar endilikda qadr kasb qiladi va farishtalarga o‘xshatish orqali uning e‘tiqodiga qiyoslanadi.

Xulosa. Ayris Myordok romanlarida tabiat tasviri qahramon ruhiy olamidagi evrilishlarni, personaj psixologik tasvirini ifodalab keladi. Myordok nazdida ulug‘vorlik tushunchasi nafaqat tabiat qudrati bilan namoyon bo‘ladi, balki inson mohiyatida ham ulug‘vorlik yotadi. Myordok Shekspirning tragediyalarini eng ulug‘vor san‘at asari deb ta’kidlaganidek, sahna bo‘lmish hayotning go‘zal tragediyasi asar qahramonining hayot yo‘lida mujassam bo‘ladi; “Yakkashox” romanida Hannaning hayoti qahramonlarga tragediya janrida yozilgan san‘at namunasi bo‘lgani kabi. Myordok badiiy olamida o‘lim konsepti inson mohiyatidagi ulug‘vorlikni his qilish uchun vositachilik qiladi. Qahramonlar o‘limga yuzlashgan zamon o‘zliklaridagi mohiyatni o‘zgarishiga, egoizmni yo‘q bo‘lishiga guvoh bo‘ladilar va bu hodisa ularni axloqiy-falsafiy yuksalish tomon yetaklaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ayris Myordok romanlarida tabiat xronotopi qahramonlarning ruhiy olamini ochib beruvchi, falsafiy g‘oyalarni ifodalovchi va syujetni rivojlantiruvchi muhim badiiy detal hisoblanadi. Adiba ijodida badiiy olam peyzaji, yomg‘ir va shamol kabi obrazlar qahramon ruhiyatini ifodalab keladi. Dengiz va botqoqlik kabi peyzaj tasvirlari o‘lim konsepti bilan parallel gavdalanib, ekzistensial inqirozni ochib beradi. Muallifning “Yakkashox” romanida keltirilgan tabiat xronotopidagi go‘zallik va ulug‘vorlik konseptlari ijodkorning boshqa asarlariga nisbatan ko‘lamliroq namoyon bo‘lgandir. Ulug‘vorlik va go‘zallik kategoriyalari orqali inson va borliq o‘rtasidagi murakkab munosabatlar chuqur talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gåvertsson, F. (2018). Perfection and Fiction: A Study in Iris Murdoch’s Moral Philosophy. Doctoral thesis (monograph), Practical Philosophy. Lund: Lund University, 310.
2. Milligan, T. (2005). Iris Murdoch’s Romantic Platonism. PhD thesis. Glasgow: University of Glasgow, 250.
3. Murdoch I. (2003). *The Sandcastle*. London: Vintage, 336.
4. Murdoch I. (2000). *The Unicorn*. London: Vintage, 292.
5. Murdoch, I. (1964). *The Flight from the Enchanter*. New York: Viking Press, 324.
6. Murdoch, I. (1959). The Sublime and the Beautiful Revisited. *The Yale Review*, Vol. 49, 247–271.
7. Murdoch, I. (1959). The Sublime and the Good. *Chicago Review*, Vol. 13, No. 3, 42–55.
8. Murdoch, I. (2000). *Under the Net*. London: Vintage, 296.
9. Бахтин, М. М. (1986). *Литературно-критические статьи*. Москва: Художественная литература, 545.
10. Тўраева, Б. Б. (2022). Замоनावий романчиликда хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологик тадқиқи (Ч. Айтматов ва Н. Норқобилов романлари мисолида). Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, 281.